

Yashil

IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

8
2023



Tosh o'rmoni
(Navoiy viloyati)

- 08.00.01 Iqtisodiyot nazariyasi
- 08.00.02 Makroiqtisodiyot
- 08.00.03 Sanoat iqtisodiyoti
- 08.00.04 Qishloq xo'jaligi iqtisodiyoti
- 08.00.05 Xizmat ko'rsatish tarmoqlari iqtisodiyoti
- 08.00.06 Ekonometrika va statistika
- 08.00.07 Moliya, pul muomalasi va kredit
- 08.00.08 Buxgalteriya hisobi, iqtisodiy tahlil va audit
- 08.00.09 Jahon iqtisodiyoti

- 08.00.10 Demografiya. Mehnat iqtisodiyoti
- 08.00.11 Marketing
- 08.00.12 Mintaqaviy iqtisodiyot
- 08.00.13 Menejment
- 08.00.14 Iqtisodiyotda axborot tizimlari va texnologiyalari
- 08.00.15 Tadbirkorlik va kichik biznes iqtisodiyoti
- 08.00.16 Raqamli iqtisodiyot va xalqaro raqamli integratsiya
- 08.00.17 Turizm va mehmonxona faoliyati



74-91 xalqaro daraja

ISSN: 2992-8982



Yashil IQTISODIYOT va TARAQQIYOT

Ijtimoiy, iqtisodiy, siyosiy, ilmiy, ommabop jurnal

Bosh muharrir:

Sharipov Qo'ng'irotboy Avezimbetovich

Bosh muharrir o'rinnbosari:

Karimov Norboy G'aniyevich

Elektron nashr. 426 sahifa, 30-avgust, 2023-yil.

Muharrir:

Qurbanov Sherzod Ismatillayevich

Tahrir hay'ati:

Rae Kvon Chung, Janubiy Korea, TDIU faxriy professori, "Nobel" mukofoti laureati

Salimov Oqil Umrzoqovich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Abduraxmanov Kalandar Xodjayevich, O'zbekiston fanlar akademiyasi akademigi

Osman Mesten, Turkiya parlamenti a'zosi, Turkiya – O'zbekiston do'stlik jamiyatni rahbari

Toshkulov Abduqodir Hamidovich, i.f.d., prof., O'zbekiston Respublikasi Prezidentining yoshlar, fan, ta'lif, sog'liqni saqlash, madaniyat va sport masalalari bo'yicha maslahatchisi o'rinnbosari

Buzrukxonov Sarvarxon Munavvarxonovich, i.f.d., O'zR Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar vaziri o'rinnbosari

Sharipov Qo'ng'irotboy Avazimbetovich, t.f.d., prof., TDIU rektori

Oblamuradov Narzulla Naimovich, i.f.n., dots., O'zR Tabiat resurslari vaziri o'rinnbosari

Djumaniyazov Maqsud Allanazarovich, Qoraqalpog'iston Respublikasi Tabiat resurslari qo'mitasi raisi

Axmedov Durbek Kudratillayevich, i.f.d., prof., O'zR Oliy Majlis qonunchilik palatasi deputati

Utayev Uktam Choriyevich, O'zR Bosh prokuraturasi boshqarma boshlig'i o'rinnbosari

Ochilov Farxod, O'zR Bosh prokuraturasi iqtisodiy jinoyatlarga qarshi kurashish departamenti bo'limi boshlig'i

Eshov Mansur Po'latovich, i.f.d., prof., TDIU Akademik faoliyat bo'yicha prorektori

Xudoqulov Sadirdin Karimovich, i.f.d., prof., TDIU YoMMMB birinchi prorektori

Abduraxmanova Gulnora Kalandarovna, i.f.d., prof., TDIU Ilmiy ishlari va innovatsiyalar bo'yicha prorektori

Kalonov Muxiddin Baxritdinovich, i.f.d., prof., "O'IRIAM" ilmiy tadqiqot markazi direktori – prorektor

Yuldashev Maqsud Abdullayevich, p.f.d., prof., TDIU Moliya-iqtisod ishlari bo'yicha prorektori

Karimov Norboy G'aniyevich, i.f.d., prof., TDIU huzuridagi PKQTMO tarmoq markazi direktori

Hakimov Nazar Hakimovich, f.f.d. TDIU profesor

Yuldashev Mutallib Ibragimovich, i.f.d., TMI professori

Samadov Asqarjon Nishonovich, i.f.n., TDIU Marketing kafedrasи professori

Slizovskiy Dimitriy Yegorovich, t.f.d., Rossiya xalqlar do'stligi universiteti professori

Mustafakulov Sherzod Igamberdiyevich, i.f.d., prof., Xalqaro "Nordik" universiteti rektori

Aliyev Bekdavlat Aliyevich, f.f.d., TDIU professori

Po'latov Baxtiyor Alimovich, t.f.d., prof., Atrof-muhit va tabiatni muhofaza qilish texnologiyalari ilmiy-tadqiqot instituti

Axmedov Javohir Jamolovich, i.f.f.d., "El-yurt umidi" jamg'armasi ijrochi direktori o'rinnbosari

Isakov Janabay Yakubbayevich, i.f.d., TDIU professori

Toxirov Jaloliddin Ochil o'g'li, t.f.f.d., Toshkent arxitektura-qurilish universiteti katta o'qituvchisi

Kamilova Iroda Xusniddinovna, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Nosirova Nargiza Jamoliddin qizi, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Sevil Piriyeva Karaman, PhD, Turkiya Anqara universiteti doktaranti

Yaxshiboyeva Laylo Abdisattorovna, TDIU katta o'qituvchisi

Rustamov Ilhomiddin, f.f.n., Farg'onan davlat universiteti dotsenti

Mirzaliyev Sanjar Maxamatjon o'g'li, TDIU Ilmiy tadqiqotlar va

innovatsiyalar departamenti rahbari

Babayeva Zuhra Yuldashevna, TDIU huzuridagi Pedagog kadrlarni qayta

tayyorlash va ularning malakasini oshirish tarmoq Markazi xorijiy hamkorlik bo'yicha mutaxassis

Ekspertlar kengashi:

Hakimov Ziyodulla Ahmadovich, i.f.d., TDIU dotsenti

Tuxtabayev Jamshid Sharafetdinovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Imomqulov To'iqin Burxonovich, i.f.f.d., TDIU dotsenti

Muassis: "Ma'rifat-print-media" MChJ

Hamkorlarimiz: Toshkent davlat iqtisodiyot universiteti,
O'zR Tabiat resurslari vazirligi,

O'zR Bosh prokuraturasi huzuridagi IJQK departamenti.

Jurnalning ilmiyligi:

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot"
jurnali

O'zbekiston Respublikasi
Oliy ta'lif, fan va innovatsiyalar
vazirligi huzuridagi Oliy
attestatsiya komissiyasi
rayosatining
2023-yil 1-apreldagi 336/3-
sonli qarori bilan ro'yxatdan
o'tkazilgan.



MUNDARIJA

JSTga a'zolik Yangi O'zbekistonni jahon iqtisodiyotiga olamshumul integratsiyalashtiradi	6
Muxiddin Kalonov , i. f. d., professor	
O'zbekistonda ipakchilik sanoatining rivojlanish strategiyalari samarasi.....	11
Jumayev Olimjon Sadulloyevich , tadqiqotchi	
"Yashil" iqtisodiyot va uni shakllantirish masalalari.....	18
Yokubjanov Doniyor Islom o'g'li , tayanch doktorant	
Suv ta'minot korxonalarining biznes jarayonlari bo'yicha	
asosiy samaradorlik ko'rsatkichlari (KPI)ni baholash.....	24
Saidakbarov Xusniddin Abdisalomovich , PhD	
O'zbekiston fond bozorida investorlarning pul mablag'larini	
jalb qilish mexanizmlaridan foydalanish.....	27
Karimov Akramjon Ikromjon o'g'li , PhD	
Ishchi kuchi bozorining amal qilish metodologiyasi	34
Mamaraximov Bekzod Erkinovich , i. f. n., dotsent	
Yashil turizmni rivojlanish va takomillashtirish istiqbollari.....	39
Normurodova Zebo Eshmaxmatovna , kafedra o'qituvchisi	
Suv resurslaridan foydalanishning samaradorligini baholashga yondashuvlar.....	44
Axmedov Sayfullo Normatovich , t. f. n., mustaqil tadqiqotchi	
Samarqand viloyatida xizmat ko'rsatish sohasining holati va	
innovatsion rivojlanish tendensiyalari tahlili.....	50
Berdiyev Anvar Abduraxmonovich , tayanch doktorant	
Mamlakatimizda markaziy bank monetar siyosatini amalga oshirishning amaliy holati	56
G'aybullayeva Zilola Raxmatullo qizi , mustaqil tadqiqotchi	
Tijorat banklari kapitalidagi mavjud davlat ulushlarini kamaytirish	61
Olimjanova Nigora Alisherovna , mustaqil izlanuvchi	
Infratuzilmaviy investitsiya loyihalarini moliyalashtirishda islam moliya bozorining roli.....	65
Saydirasulov Laziz Alimovich , doktorant	
Balansning tarkibiy tuzilishi va unga ta'sir etuvchi omillar	71
Tulayev Mirzakul Salamovich , kafedra dotsenti; Axmedov Akbarali Sultonmurodovich , i. f. n (PhD)	
Интеграция современных информационных систем в аудит бюджетных организаций	78
Урдабаев Жарылқап Ермекбаевич , независимый исследователь	
Формирование и использование ресурсного потенциала промышленных предприятий.....	83
Махмудов Носир Махмудович , д. э. н., профессор; Фозилова Фирангиза Комиловна , докторант	
Qishloq xo'jaligi ekinlarining yovvoyi ajdodlarini genofond sifatida asrash va ulardan samarali	
foydalanish zarurati.....	89
Sherali Xolliyev , kafedra o'qituvchisi	
Turizmnii rivojlantirishda axborot texnologiyalarning o'rni	94
Yuldasheva Dilnoza Ulugbekovna , mustaqil tadqiqotchi	
Sanoat klasterlarini tashkil etish va boshqarishning o'ziga xos jihatlari.....	99
Xakimov Ziyodulla Axmadovich , dotsent; Axmadova Rayxona Jasurbek qizi , tadqiqotchi	
"Universitet-ishlab chiqarish" integratsiyasi sharoitida oliy o'quv yurtlarining	
innovatsion rivojlanishini boshqarishning nazariy qoidalari.....	103
Shamshiyeva Nargizaxon Nosirxo'ja qizi , iqtisodiyot fanlari nomzodi, dotsent	
Farmatsevtika sanoati raqobatbardoshligini oshirishda farmatsevtikaga ixtisoslashgan	
erkin iqtisodiy zonalardan foydalanishning xorij tajribasi.....	108
Abdiyeva Flora Botir qizi , tayanch doktorant	
Hududlar ijtimoiy-iqtisodiy rivojlantirishga ilmiy yondashuvlar	114
Abdullahayev Farxod Ozodovich , mustaqil tadqiqotchi	
Budget-soliq va pul-kredit siyosatini muvofiqlashtirishda fiskal va	
monetar qoidalardan foydalanishning nazariy jihatlari	119
Hakimjon Hakimov , tadqiqotchi	
Analyzing the Impact of External Debt on The Financial Security of the Country	125
Sanakulova Barnogul Rizakulovna , Doctor of Economic Science, Professor;	
Jamolov Mirzabek Mirjalil ugli , Senior researcher	



Sanoat korxonalarining iqtisodiy o'sishi va barqaror rivojlanishining o'ziga xos xususiyatlari.....	129
Avloqulova Sadoqat Sobirjon qizi	
Digital Advertising Oasis: Qatar's E-Marketing Revolution	133
Mirziyo Sodikov Odiljon o'g'li	
Tikuv-trikotaj korxonalari faoliyatida marketing tadqiqotlaridan foydalanishning SWOT tahlili	138
Ro'zmamatov Abbas Tolibjon o'g'li , magistrant	
Xorijiy investitsiyalar oqimiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlash uchun ekonometrik regression model tuzish.....	144
Saydullayev Azamat Jo'raqul o'g'li , tayanch doktorant	
Eksport – mamlakat iqtisodiy o'sishiga ta'sir etuvchi asosiy omil sifatida	151
Sharifi Ahmad Sakhrob , mustaqil izlanuvchi	
Роль цифровизации туристической отрасли в повышении её экспортного потенциала страны	156
Суюнова Фотима Баходир кизи , базовый докторант	
Surxondaryo viloyati iqtisodiyotiga kiritilgan xorijiy investitsiyalar prognози	161
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Inson kapitalini oshirishda xodimlarni o'qitish va rivojlantirishning o'rni.....	169
G'aniyeva Dilnoza Baxriddin qizi , doktorant	
Совершенствование порядка исчисления и уплаты акцизного налога в Узбекистане	174
Жуманиязова Феруза , PhD, доцент	
Yevropa tiklanish va taraqqiyot bankidan investitsiya jalg qilish imkoniyatlari.....	179
Mamatov Bahromjon Shavkatovich , dotsenti, PhD	
Davlat-xususiy sherikligini rivojlantirishning xorijiy tajribalari.....	184
Mamayusupova Dilovarxon Begmatovna , mustaqil izlanuvchi, i. f. f. d. (RhD)	
Banklar moliyaviy barqarorligini ta'minlashda makroprudensial siyosatning o'rni.....	190
Nilufar Sharipova , PhD	
Dunyoda qorako'l teriga bo'lgan talabning pasayishi: sabab va oqibatlar	197
Nurillayev Jamoliddin Yarashevich , doktorant, i. f. n., dotsent	
Mehnat resurslarini faoliyatini tashkil etishning mezonlari va ko'rsatkichlari.....	201
O'roqov Mamurali Odil o'g'li , tayansh doktarant	
Biznes loyihalarini moliyalashtirishning xorij tajribasi	208
Razzaqov Jasur Hamraboievich , dotsent, PhD	
Сравнительный анализ методов оценки финансирования инновационных разработок предприятие.....	212
Рузиева Дилноза Абдусаматовна , независимый исследователь	
IPOning muvaffaqiyatlilik darajasini aniqlash metodikasini takomillashtirish yo'llari	216
Saydullayev Shaxzod Sherzodovich , PhD	
Источники финансирования стартап-проектов и способы их привлечения	222
Хажиев Бахтиёр Душабоевич , dotsent, iqtisodiyot fanlari nomzodi	
Tashqi iqtisodiy munosabatlar sharoitida tashqi savdo va bojxona mexanizmlarini tartibga solish masalalari	227
Adizov Sardor Rashidovich , mustaqil izlanuvchi	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish	231
Mamatov Sardor Axmatjonovich , mustaqil tadqiqotchi	
Malayziya iqtisodiyotida Islom kapital bozori ahamiyatining tahlili.....	238
Abrorov Sirojiddin Zuxriddin o'g'li , PhD	
Анализ современного состояния предприятий топливно-энергетического комплекса Узбекистана	243
Мирзахалилова Азизахон Алишеровна , докторант	
Moliyaviy savodxonlik orqali fond bozori savdolarida institutslonal investorlar faolligini oshirish	249
Sultanov Maxmud Axmedovich , dotsent, PhD	
Qishloq xo'jaligi mahsulotlarini tashqi bozorlarga yetkazib berishda tijorat standartlarining o'rni	254
Xojoyev Elshod Yoqub o'g'li , PhD; Fayzullayev Shuhrat Sherali o'g'li , tayanch doktorant	
Особенности использования системно-процессного менеджмента в развитии зеленой экономики	259
Отакулов Махамаджон Каримович , PhD, и.о. доцент	
Milliy turizm tarmog'ida raqobat ustunliklarini aniqlashning ijtimoiy-iqtisodiy ahamiyati	264
Xalilov Sirojiddin Sherali o'g'li , PhD	
Sut mahsulotlari ishlab chiqarish korxonalarida "yashil marketing" strategiyalari.....	268
Eshmatov Sanjar Ashirqulovich , mustaqil tadqiqotchi, i.f.f.d.(PhD)	



O'zbekiston Respublikasida kredit mexanizmini takomillashtirish imkoniyatlari.....	272
Gadoyev So'hrob Jumakulovich , PhD, dotsent	
Vliyanie investitsionnoj politiki na innovacionnuyu deyatel'nost' v Respublike Koreya.....	277
Алимова София Розумбаевна , nezavisimyyi issledovatel'	
Hududlarda oliv ta'lim va mehnat bozori integratsiyasi yo'naliшlarini takomillashtirish.....	282
Haqqulov Fazliddin Faxriddinovich , tayanch doktorant	
Bozor iqtisodiyoti sharoitida iqtisodiy potensialni rivojlantirish.....	290
N. N. Ismatullayeva , tayanch doktarant	
Mahalliy byudjet daromadlari shakllanishi va muammolarining amaliy holati va tahlili.....	293
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD	
Temir yo'l transportidan samarali foydalanishning ekonometrik tahlili.....	298
Shakarova Dilfuza Ruzimuratovna , tayanch doktorant	
Formirovaniye kreditnogo portfela sovremenennogo kommercheskogo banka.....	304
Жураева Нодира Фузулий кизи , assistent kafedry	
Logistika kompaniyalarida yuklarni sug'ortalashni takomillashtirish yo'llari	310
G. Abduvosidova , kafedra o'qituvchisi	
Tumanlar va tadbirkorlikning rivojlanish darajalarini baholash uslublari.....	315
Nazarov Shohbek Isroilovich , magistrant	
Shaxsning iqtisodiy xavfsizligini ta'minlash strategiyasini ishlab chiqish.....	320
Mamatov Axmetjon Atajanovich , professor; Allaberganova Zakir Gayibovich , dotsent	
Moliya tizimini barqarorlashtirishda mahalliy budgetlarning imkoniyatlarini oshirish masalalari.....	327
Ollokulova Feruza Mansurovna , PhD; Eshonqulov Asliddin Mammatmurod o'g'li , magistrant	
Byudjetdan tashqari mablag'lari samaradorligini oshirishda davlat xaridlarining roli	330
Norov Akbar Ruzimamatovich	
Fond bozorini rivojlantirishning mamlakat iqtisodiy o'sish jarayonlari bilan bog'liqligi	335
Xoliqov Ulug'bek Rustamovich , t.f.n.	
Sun'iy intellektning tijorat banklari samaradorligiga ta'siri: xorijiy tajriba	341
N.N.Ro'ziyev	
O'zbekistonda turizmni rivojlantirishda investitsion loyihalarni jalg qilishning iqtisodiy mexanizmini takomillashtirish.....	350
Astanov Sherzod Rustamovich , mustaqil tadqiqotchi	
Assessing the Impacts of Modern Models for Increasing Textile Product Exports through Green Strategies.....	356
Nosirova Charos	
MDH mamlakatlarida islom moliyasini rivojlanish istiqbollari.....	364
Irgasheva Gulbahor Sodiqovna , tayanch doktorant	
Qayta ishlash sanoati korxonalarini iqtisodiy samaradorligini oshirishning zamonaviy yo'llari	369
Abduxamidova Gulxayo , tadqiqotchi	
Mintaqa iqtisodiyotiga kiritilayotgan xorijiy investitsiyalar statistik tahlili	374
Xatamov Nurbek Ochildeyevich , erkin tadqiqotchi	
Mezhduanal'nyi opyt razvitiya regionov putem privlecheniya investitsii cheres rynek kapitala.....	380
Dadahanova Saida Makhhammadxon kizi , doktorant	
Iskusstvennyi intellekt kak instrument upravleniya chelovecheskimi resursami	386
Xайдарова Малика Шакирджановна , prepodavatel' kafedry	
Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishining iqtisodiy-statistik tahlili	396
S.T.Toshaliyeva , PhD	
Jahon Savdo Tashkiloti faoliyatasi va unga a'zo bo'lish xususida.....	403
Ruzibayev Jahongir Nodirovich , tadqiqotchi	
Xufiyona iqtisodiyot ulushining oshishi O'zbekiston Respublikasi iqtisodiy xavfsizligiga bevosita tahdid sifatida.....	407
Nabiiev Feruz Nurmurodovich , tadqiqotchi	
Anoerob qayta ishlash jarayonini elektr impulsli ishlov berish	412
Imomova Nodira Shavkatovna tadqiqotchi, Sultonov Mansur Qilichevich PhD	
Milliy transport infratuzilmasini takomillashtirish.....	416
Xashimova Naima Abitovna , i.f.n., professor; Ergashev Shoxrux Vosiljon o'g'li assistent	
Korxonalar faoliyatida internet – marketing texnologiyalarini rivojlantirishning nazariy asoslar.....	421
M.A.Saparova , talaba	



SURXONDARYO VILOYATIDA KICHIK TADBIRKORLIK RIVOJLANISHINING IQTISODIY-STATISTIK TAHLILI

S.T.Toshaliyeva

PhD, Termiz davlat universiteti, Termiz

Annotatsiya: O'rganilayotgan mavzuning dolzarbligi kichik tadbirkorlik faoliyatining mintaqaviy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi shiga ta'sirini baholash zarurati bilan bog'liq. Tadqiqotning maqsadi Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishi jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisa va jarayonlar holatini statistik tahlil etishga qaratilgan. Ushbu maqsadga erishishda maqolada statistik va nazariy tahlil usullaridan foydalanilgan bo'lib, unda kichik tadbirkorlik rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar, kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, kichik tadbirkorlik subyektlarining faollilik darajasi, kichik tadbirkorlik korxonalarining yaratilish va tugatish koeffitsiyenti statistik tahlil qilin-gan, ilmiy asoslangan holda baholangan, taklif va tavsiyalar ishlab chiqilgan.

Kalit so'zlar: kichik tadbirkorlik, YaHM, kichik tadbirkorlikning faollilik darajasi, kichik tadbirkorlik korxonalarini yaratish va tugatish koeffitsiyenti

Аннотация: Актуальность исследуемой темы обусловлена необходимостью оценки влияния деятельности малого предпринимательства на социально-экономическое развитие региона. Цель исследования направлена на статистический анализ состояния и процессов, которые могут возникнуть в процессе развития малого предпринимательства в Сурхандарьинской области. При достижении поставленной цели в статье использованы методы статистического и теоретического анализа, в которых представлены показатели, отражающие развитие малого предпринимательства, распределение малого предпринимательства по основным видам экономической деятельности, статистически анализируются уровен активности субъектов малого предпринимательства, коэффициент создания и ликвидации предприятий малого бизнеса, даётся научная оценка, разрабатываются предложения и рекомендации.

Ключевые слова: малое предпринимательство, ВРП, уровень активности малого предпринимательства, коэффициент создания и ликвидации предприятий малого бизнеса

Abstract: The relevance of the topic under study is due to the need to assess the impact of small business activities on the socio-economic development of the region. The purpose of the study is aimed at statistical analysis of the state of dormitories and processes that may arise in the process of small business development in Surkhandarya region. In achieving this goal, the article uses methods of statistical and theoretical analysis, which presents indicators reflecting the development of small business, the distribution of small business by the main types of economic activity, the level of activity of small businesses, the coefficient of creation and liquidation of small businesses is statistically analyzed, a scientific assessment is given, proposals and recommendations are developed.

Key words: small entrepreneurship, GRP, the level of activity of small entrepreneurship, the coefficient of creation and liquidation of small businesses

KIRISH

Kichik tadbirkorlik rivoji qtisodiyotining ajralmas qismi bo'lib, uning ishtirokisiz hududlar iqtisodiyotini rivojlanishi tasavvur qilish mumkin emas. Xususan kichik tadbirkorlik o'zining harakatchanligi va keng qamrovi bilan Surxondaryo viloyatining iqtisodiyotini barqaror va doimiy rivojlanishini ta'minlashda yordam beradi. Kichik tadbirkorlik turli iqtisodiy faoliyatatlarni amalga oshirishi va iqtisodiyotning barcha sohalarini qamrab olishi mumkin. Kichik tadbirkorlikning eng muhim xususiyatlari innovatsiyaga asoslanganligi va bozordagi yetishmovchilik holatlarini samarali bartaraf eta olishidir.

Kichik tadbirkorlik viloyat ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishida muhim rol o'ynab, hududdagi ijtimoiy va iqtisodiy barqarorlikni ta'minlashdagi eng asosiy kuch hisoblanadi: iqtisodiy barqaror tuzilmani shakkantirishga yordam beradi, u yoki bu bozordagi o'zgarishlarga tez moslashuvchan, mahalliy byudjet daromadlari ko'pay-



ishini ta'minlaydi, innovatsion yangiliklarni yaratuvchisi hisoblanadi. Kichik tadbirkorlikning hudud iqtisodiyotiga ta'sirini quyidagi holatlar bilan izohlash mumkin:

- yangi ish o'rinalarini yaratilishi, bandlik darajasi oshishi, o'z-o'zini ish bilan band etishning kengayishi;
- aholi turmush farovonligi oshishi;
- bozor talabining qondirilishi;
- hududiy bozorlar rivojlanishi;
- hududning umumiy ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi.

MAVZUGA OID ADABIYOTLAR TAHЛИLI

Kichik tadbirkorlik rivojlanishining hududiy iqtisodiy-statistik tahlili bo'yicha xorij va MDH mamlakatlari olimlaridan R.Lukas^[2], P.Romer^[3], P.Min, A.Portes, S.Xavier^[4], A.Chepurenko^[5], S.Yegorixina^[6], B.Salixov, V.Samoylov^[7], Ya.Sergienko^[8], E.Fiyaksel, N.Shubnyakova^[9], N.Doronina^[10], I.Cheplyaeva^[11], O.Ponomarov^[12], K.Arshakuni^[13] va boshqalar ilmiy tadqiqot ishlari olib borganlar.

S.G'ulomov, Yo.Abdullaev, Sh.Yuldashev^[14], B.Ruzmetov^[15], S.Salaev, T.Do'stjanov^[16], A.Yugay^[17], T.Shodiev, B.Xodiev^[18] va boshqa olimlar ilmiy tadqiqotlarida kichik tadbirkorlikning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanish tendensiyalari va istiqbollarini iqtisodiy-statistik tahlil, ekonometrik modellashtirish hamda prognozlashning ilmiy muammolari yoritilgan.

Kichik tadbirkorlik bo'yicha amalga oshirilgan ilmiy-tadqiqotlarga qaramasdan, kichik tadbirkorlik ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishini hududiy jihatlarini baholash va uni statistik-ekonometrik tahlil etish masalalari yetarlicha o'rganilmaganligi mazkur mavzuda chuqurlashtirilgan ilmiy-uslubiy izlanishlar amalga oshirishni taqozo etadi.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqot ishining metodologik asosi Surxondaryo viloyatida kichik tadbirkorlik rivojlanishi jarayonida ro'y berishi mumkin bo'lgan hodisa va jarayonlar holatini statistik tahlil etishga qaratilgan bo'lib, bunda kichik tadbirkorlik rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar, kichik tadbirkorlikning asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi, kichik tadbirkorlik subyektlarining faollilik darajasi, kichik tadbirkorlik korxonalarining yaratilish va tugatish koeffitsiyentini statistik tahlil asosida miqdor va sifat jihatdan ilmiy asoslangan holda baholash, hududda kichik tadbirkorlikning kelgusi ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishiga ta'sir etuvchi omillarni aniqlashdan iborat.


TAHLIL VA NATIJALAR

Jahon miqyosidagi murakkab jarayonlarni va mamlakatimiz bosib o'tgan taraqqiyot natijalarini chuqur tahlil qilgan holda keyingi yillarda «Inson qadri uchun» tamoyili asosida xalqimizning farovonligini yanada oshirish, iqtisodiyot tarmoqlarini transformatsiya qilish va tadbirkorlikni jadal rivojlanishirish, inson huquqlari va manfaatlarini so'zsiz ta'minlash hamda faol fuqarolik jamiyatini shakllantirishga qaratilgan O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Yangi O'zbekistonning 2022–2026 yillarga mo'ljallangan taraqqiyot strategiyasi to'g'risida"gi Farmonining tub mohiyati ham milliy iqtisodiyotni yuqori o'sish sur'atlarini ta'minlash, tadbirkorlik subyektlari huquqlari va qonuniy manfaatlarini himoya qilish, tadbirkorlik faoliyatini tashkil etish va doimiy daromad manbalarini shakllantirish uchun sharoitlar yaratish, xususiy sektorning Yalmagi ulushini 80 foizga va eksportdagि ulushini 60 foizga yetkazish, tadbirkorlikni yanada rivojlanishni nazarda tutadi^[1].

Mamlakatimiz ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi hamda iqtisodiy barqarorligini ta'minlashda kichik tadbirkorlikni o'rni beqiyosdir. Jumladan, 2022-yilda respublikamizda kichik biznes va xususiy tadbirkorlikning Yalmagi ulushi 51,8 foizni, iqtisodiyotda jami bandlarga nisbatan kichik tadbirkorlik sohasida bandlar ulushi 74,6 foizni, sanoatdagi ulushi 25,9 foizni tashkil etdi. Har 1000 aholiga nisbatan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 14,2 birlikka teng bo'ldi.

Kichik tadbirkorlikning mamlakat iqtisodiyotidagi beqiyos o'rnini hisobga olib, hukumatimiz tomonidan ushbu sohani rivojlanishirish uchun keng islohotlar amalga oshirilib, uning huquqiy asoslari mustahkamlanib bor-moqda.


Shu bilan bir qatorda Surxondaryo viloyatida ham kichik biznes va xususiy tadbirkorlikni rivojlanishirish borasida amalga oshirilayotgan sa'yi-harakatlar natijasi o'laroq, 2022-yilda kichik tadbirkorlikning YaHM dagi ulushi 76,8 foizni tashkil etdi. Har 1000 ta aholiga nisbatan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 12,6 birlikka teng bo'ldi. Faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalar umumiy soni 27368 taga yetib, o'tgan yilga nisbatan 39 foizga ko'pdir. Hududda tijorat banklari tomonidan kichik tadbirkorlikka 2015-yilda 742 milliard so'm miqdorida kredit ajratilgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 2598 milliard so'mga yetib, qariyb 3,5 barobar oshganligini ko'rish mumkin. Tahlillarni davom ettirar ekanmiz, Surxondaryo viloyatidagi KBXT rivojlanishini ifodalovchi asosiy ko'rsatkichlar dinamikasini keltirib o'tmoqchimiz (1-rasm).



1-rasm: Surxondaryo viloyatida KBXT rivojlanishini ifodalovchi ko'rsatkichlar¹

Yuqoridagi ma'lumotlardan ko'rinish turibdiki, kichik tadbirdorlikda bandlar soni 2010-yilda 588300 kishini tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 809700 nafarga yetgan, ya'ni 33,4 foizga ko'paygan. Yillar bo'yicha kichik tadbirdorlik subyektlari soni o'zgarish dinamikasiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, 2010-yilda 8635 tani tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 25772 taga yetgan, ya'ni qariyb uch barobarga oshgan. Kichik tadbirdorlikning YaHMdagi ulushi kuzatilayotgan yillar davomida bir maromda oshib borgan, ya'ni 2010-yilda 2434,0 milliard so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 26771,3 milliard so'mga yetgan. Bundan ko'rindaniki, yillar davomida kichik tadbirdorlikning YaHM dagi ulushi ortib bongan. Kichik tadbirdorlikning YaHMdagi ulushi 2019-yilda 77,9 foizni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib, 76,8 foizga teng bo'lgan. Bu holat 2022-yilda yirik korxonalar ulushi oshishi bilan izohlanadi.

Tahlillar uzviyigini davom ettirgan holda 2-rasm ma'lumotlariga etiborni qaratamiz. KBXT sohasi yalpi mahsulotining viloyat va respublikadagi ulushi dinamikasi yillar bo'yicha bir maromda oshganligini ko'rish mumkin (pandemiyani hisobga olmaganda).



2-rasm: KBXT sohasi yalpi mahsulotining viloyat va respublikadagi ulushi dinamikasi²


KBXTning respublika YaHMdagi ulushi 2010-yilda 52,5 foizni tashkil etgan bo'lsa, yillar davomida sekinlik bilan oshib borib, 2016-yilga kelib, 64,9 foizga yetgan, keyinchalik bu barqarorlik asta-sekinlik bilan pasayib borib, 2020-yilga kelib 53,9 foizga teng bo'lgan. Bu pasayishni pandemiya keltirib chiqargan iqtisodiy inqiroz bilan ham izohlash mumkin. Viloyat bo'yicha boshqacharoq holatni kuzatish mumkin, ya'ni kichik tadbirdorlikning YaHMdagi ulushi yillar davomida barqaror o'sib bongan. 2010-yilda 71,7 foizni, 2022-yilga kelib esa 76,8 foizni tashkil etgan.

1 Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

2 Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi



Surxondaryo viloyatida KBXTning asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi dinamikasini tahlil qiladigan bo'lsak, quyidagi manzarani ko'rish mumkin (3-rasm).




3-rasm: Surxondaryo viloyatida KBXTning asosiy iqtisodiy faoliyat turlari bo'yicha taqsimlanishi³

Ma'lumotlardan ko'rilib turibdiki, kichik tadbirkorlikning qishloq xo'jaligidagi ulushi 2021-yilda 23281,8 mlrd. so'mni tashkil etgan bo'lsa, 2022-yilga kelib 27239,3 mlrd.so'mga teng bo'lgan, ya'ni o'sish sur'ati 16,9 foizni tashkil etgan. Kichik tadbirkorlikning sanoatdag'i ulushi esa mos ravishda 3378,6 va 3128,8mlrd.so'm atrofida bo'lgan. 2022-yilda kichik tadbirkorlikning sanoatdag'i ulushi 7,4 foizga kamayishga uchragan. Ushbu holatni xizmatlar sohasida ham kuzatish mumkin, ya'ni 2022-yilda 2021-yilga nisbatan -18,9 foiz kamayish qayd etilgan.

Kichik tadbirkorlikning investitsiyalardagi ulushi 2021-yilda 12037,8 mlrd. so'mni tashkil etgani holda, 2022 yilga kelib esa 11507,3 mlrd. so'mga tushib ketgan, ya'ni -4,5 foizgacha pasayish kuzatilgan.

2015-yil birinchi yanvar holatiga ko'ra Surxondaryo viloyatida jami 11344 ta kichik tadbirkorlik subyektlari ro'yxatdan o'tgan bo'lib, uning 9062 tasi yashab qolgan, ya'ni bu ko'rsatkich 79,9 foizga teng bo'lgan. Respublika bo'yicha ro'yxatdan o'tgan kichik tadbirkorlik subyektlari soni 221140 tani tashkil etib, shulardan 196014 tasi yashab qolgan. Kichik tadbirkorlik subyektlari faollilik darajasi esa 88,6 % ni tashkil etgan, ya'ni 8,7 foizga yuqori ko'rsatkichiga ega bo'lgan. Surxondaryo viloyatida 2020-yil 1-yanvar holatiga ushbu ko'rsatkichlar mos ravishda 15438 va 15172 tani tashkil etgan, ya'ni kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliydarajasi 98,2 foizga teng bo'lgan. Respublika bo'yicha esa mos ravishda 353921 va 334767 tani tashkil etib, 94,5 foizga teng bo'lgan. Bundan ko'rinaladi, kuzatilayotgan yilda respublika ko'rsatkichi viloyat ko'rsatkichidan 3,7 foiz pasayish tendensiyasiga ega bo'lgan (4-rasm).




4-rasm: O'zbekiston Respublikasi va Surxondaryo viloyati bo'yicha kichik tadbirkorlik subyektlarining faoliydarajasi

³ Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida mualif hisob-kitobi



Kuzatilayotgan yillarda davomida kichik korxonalar faollilik darajasi muntazam oshib borish tendensiyasiga ega bo'lgan. 2023-yil 1-yanvar holatiga korxona va mikrofirmalar faollilik darajasi respublika bo'yicha 94,1 foizga, viloyat bo'yicha esa 94,8 foizga teng bo'lgan.

Surxondaryo viloyatida faoliyat yuritayotgan kichik korxona va mikrofirmalarning ro'yxatga olish va tugatish koeffitsiyentlari 2010-2022-yillarda davomida faoliyat yuritgan kichik korxona va mikrofirmalarga nisbatan yaratilgan hamda tugatilgan kichik tadbirkorlik subyektlarining foizdagi ulushi sifatida hisoblab chiqilgan (5-rasm).



5-rasm: Surxondaryo viloyati bo'yicha kichik tadbirkorlik korxonalarining yaratish va tugatish koeffitsiyenti⁴

Kichik korxona va mikrofirmalarni yaratish hamda tugatish koeffitsiyentlari o'rtasidagi farq sof tashkil etilgan subyektlarni mavjudlariga nisbatan foizdagi ulushi sifatida qaraladi. Ma'lumotlardan ko'rinib turibdiki, 2013 va 2015-yillarda kichik korxonalar va mikrofirmalarning yaratish koeffitsiyenti keskin tushib ketishi oqibatida sof yaratish koeffitsiyenti mos ravishda -0,3 va 3,8 foizni tashkil etgan. 2013-yilda hududda 918 ta korxona yaratilib, 968 ta korxona va mikrofirmalar tugatilgan va sof yaratish koeffitsiyenti manfiy natijani aks ettirgan. Keyingi pasayish darajasi 2018 yilga to'g'ri kelgan va sof yaratish koeffitsiyenti 3,3 foizni tashkil etgan. 2022-yilga kelib kichik korxonalarining yaratish koeffitsiyenti 20,7 foizni, tugatish koeffitsiyenti esa 8 foizni tashkil etgan. Sof yaratish koeffitsiyenti 12,7 foizni tashkil etgan. Yuqorida amalga oshirilgan statistik tahlillar natijalariga e'tibor qaratadigan bo'lsak, hudud YaHMdag'i pasayish ham aynan ushbu yillarga mos kelayotganligini inobatga olib YaHM va kichik korxonalarini sof yaratish koeffitsiyenti o'rtasida bog'liqlik mavjud degan xulosaga kelishimiz mumkin.

Biz amalga oshirgan tadqiqotlarimiz jarayonida kichik korxonalarining faollilik darajasini tahliliy o'rganib chiqdik, ushbu tahlil jozibadorligini oshirish va yanada chuqurroq tahlil qilish uchun Surxondaryo viloyati hududlari kesimida ham tahlil qilishni lozim topdik (1-jadval). Jadval ma'lumotlaridan ko'rinib turibdiki, 2017-yilda kichik tadbirkorlik subyektlarining eng yuqori faoliydarajasi Termiz shahri, Termiz tumani, Jarqurg'on, Angor, Denov tumanlariga to'g'ri kelgan. Qolgan tumanlarda ham faoliydarajasi barqaror holatda saqlangan. Tahlil etilayotgan 2020, 2021, 2022-yillarda ham korxonalar faolligi 88 va 100 foiz atrofida bo'lgan, ya'ni ushbu kuzatilayotgan yillarda mobaynida kichik korxona va mikrofirmalar deyarli o'z faoliyatini tugatmasdan yashab qolgan.

1-jadval: Surxondaryo viloyati bo'yicha tumanlar kesimida KBXT subyektlarining faollilik darajasi⁵

№	Shahar va tumanlar nomi	Faoliyat ko'rsatayotgan korxonalarining ulushi, %					
		01.01.2017	01.01.2018	01.01.2019	01.01.2020	01.01.2021	01.01.2022
	Viloyat bo'yicha jami	92,7	95,5	99,5	98,2	95,1	94,5
1	Oltinsoy	85,1	88,3	99,4	98,2	97	95,5
2	Angor	95,7	95,2	99,6	98,5	96,6	96,5
3	Bandixon	-	-	-	-	98,3	97,4
3	Boysun	91,2	96,9	99,3	96,7	96,2	94,2
4	Muzrabot	89,1	93,5	99,1	98,1	97,1	96,1
5	Denov	93,1	95,4	99,1	98,4	95	94,5
6	Jarqo'rg'on	95,8	96,4	99,7	96,6	94,7	92,4
7	Qumqo'rg'on	80,4	93,9	98,1	96,8	90,1	93
8	Qiziriq	87,1	91,3	99,6	99,8	95,6	95,8
9	Sariosiyo	88,2	92,1	98,5	99,5	98	97,1
10	Termiz tumani	96,7	97,7	100	97,9	97,3	96,2

4 Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi

5 Surxondaryo viloyati Statistika boshqarmasi ma'lumotlari asosida muallif hisob-kitobi



11	Uzun	85,7	88,7	100	94,7	92	95
12	Sherobod	94,7	96,4	100	99,7	94	92,1
13	Sho'rchı	91,4	94,4	99,7	97,5	90,6	89,8
14	Termiz shahri	99,2	99,5	99,9	99,4	96,5	96,1

Kuzatilayotgan barcha yillar davomida Termiz shahri, Termiz, Angor, Denov tumanlari kichik korxonalarining faollilik darajasi yuqoriligicha saqlanib qolgan.

Amalga oshirilgan tahlil natijalari bo'yicha xulosa qiladigan bo'lsak, Surxondaryo viloyatida kichik tadbirdorlik subyektlarining iqtisodiyot faoliyat turlari bo'yicha ulushi yuqori hamda ularning faollilik darajasi tahlil etilgan yillar davomida o'sish tendensiyasiga ega bo'lgan. Buning sabablaridan biri yaratish koeffitsiyenti o'sib borishi va tugatish koeffitsiyentining tahlil etilgan yillarda kamayib borganligi bilan izohlash mumkin.

Aytish joizki, kichik korxonalarining yaratuvchanlik koeffitsiyenti oshganligi hududda kichik tadbirdorlik rivojlanib ketadi, degani emas. Chunki ko'pchilik kichik tadbirdorlik subyektlari 3 yil ichida turli sabablarga ko'ra o'z faoliyatini tugatmoqda. O'tkazilgan so'rov nomada natijalariga ko'ra, kichik tadbirdorlik subyektlarining asosiy qismi mablag' yetishmasligi, ishlab chiqargan mahsulotlarni sotish qiyinligi, biznes sohasida tajribasi yo'qligi, turli ma'muriy to'siqlar sabab o'z faoliyatlarini tugatishganliklarini aytib o'tishgan. Bu esa tadbirdorlikni rivojlanishda uning miqdori bilan bir qatorda sifatiga ham katta e'tibor qaratish zarurligini ko'rsatadi.

XULOSALAR VA TAKLIFLAR

Yuqorida keltirilgan tahlillarga tayanadigan bo'lsak, Surxondaryo viloyatida kichik tadbirdorlik faoliyatini qo'llab-quvvatlash bo'yicha turli xil chora-tadbirlar tizimini ishlab chiqishni talab etadi. Viloyatdagi kichik tadbirdorlik subyektlari faoliyati rivojlanishini statistik tahlil qilish natijasida ko'rish mumkinki, turli iqtisodiy tarmoqlar bo'yicha turlicha muammolar mavjud. Bu esa o'z navbatida kichik tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlash usullarini tabaqaqlashtirilgan holda amalga oshirishni talab etadi.

Viloyatda kichik tadbirdorlik faoliyatini rivojlantirish uchun kichik tadbirdorlikni qo'llab-quvvatlash bo'yicha quyidagi chora-tadbirlar tizimini amalga oshirish maqsadga muvofiqdir:

- o'z faoliyatini boshlamoqchi bo'lgan tadbirdorlarni moliyalashning turli dastaklaridan foydalangan holda qo'llab-quvvatlash;
- ishlab chiqarishni tashkil etish uchun zarur bo'lgan asbob-uskunalarni lizing asosida imtiyozli shartlarda taqdim etish;
- kichik tadbirdorlikni rivojlantirishga yo'naltirilgan infratuzilma loyihamonini amalga oshirish uchun moliyaviy mablag'larni taqdim etish;
- kichik tadbirdorlik subyektlarini mulkiy qo'llab-quvvatlash;
- kichik tadbirdorlikka xizmat ko'rsatuvchi axborot ta'minoti tizimini rivojlantirish;
- kichik tadbirdorlik subyektlariga xizmat ko'rsatuvchi konsalting xizmatlarini yo'nga qo'yish va boshqalar.

Viloyatda kichik tadbirdorlikni rivojlantirish uchun ularni moliyaviy, ma'muriy, axborot va maslahat chora-tadbirlari, shu jumladan, keng qamrovli tizimli yondashuvni amalga oshirishni talab etadi.

Foydalilanilgan adabiyyotlar:

1. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Sh.M.Mirziyoyevning "2022-2026-yllarga mo'ljallangan Yangi O'zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to'g'risida", 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli Farmoni.
2. Robert E. Lucas «On the mechanics of economic development» Journal of Monetary Economics 22 (1988) 3-42. North-Holland.
3. Romer P.M. Increasing Returns and Long-Run Growth// The Journal of Political Economy, October, 1986. — pp. 1002—1037.
4. Portes, A., Guarnizo, L. E., & Haller, W. J. (2002, April). Transnational entrepreneurs: An alternative form of immigrant economic adaptation. American Sociological Review, 67(2), 278–298.;
5. Чепуренко А.Ю. Малое предпринимательство в социальном контексте / – М.: Наука, 2004. – 480 с.
6. Егорихина С. Ю. Предпринимательский потенциал населения региона//Экономика региона: проблемы и перспективы развития. № 1 (53). 2011. –42–50 с.
7. Салихов Б. В., Самойлов В. О. Частная собственность как социально-экономическая основа реализации предпринимательского потенциала//Финансы и кредит. № 15. 2006.
8. Сергиенко Я. В. и др. Предпринимательский потенциал: опыт и перспективы развития в России//Вестн. ОРЕЛГИЭТ. № 20. 2012. –3–8 с. http://old.oreljiet.ru/monah/1_20_11_12.pdf.
9. Фияксель Э.А., Шубнякова Н.Г. и др. Эволюция понятия "предпринимательский потенциал". Журнал Инновации № 9(215), 2016.-48с.;
10. Доронина И.Э. Управление развитием предпринимательского потенциала мезоуровня. Дис.уч.ст.к.э.н. -М.: 2018.-72-78 с.
11. Чепляева И. Е. Предпринимательский потенциал: проблемы формирования и использования в российской



- экономике. Дис.к. э. н.: 08.00.07. Саратов, 1999. – 168 с.
12. Пономаров О. Системная модель предпринимателя и предпринимательской деятельности. Дис. ... к. э. н. -Москва, 2020. – 122 с.
13. Аршакуни К. Эконометрические моделирование генезиса и динамики малых новых предприятий.Дис....к.э.н.- Москва,2020.–72с.
14. Фуломов С.С. Тадбиркорлик ва кичик бизнес. – Т.: 2002.-256 б.
15. Абдуллаев Ё., Юлдашев Ш. Малый бизнес и предпринимательство. – Т.: Иқтисод-молия, 2008. – 339 с.
16. Рузметов Б. Оптимизационные задачи многоагрегатных комплексов. Модели, методы решения, программные модули. - Т.: Фан, 2010.
17. Дўстжанов Т. Кичик бизнеснинг катта имкониятлари.- Урганч.: Хоразм, 1997.
18. Югай А.Б .Моделирование процессов управления развитием производства предприятий малого бизнеса.: Иқт. фан. номз. дисс.автореф. –Т.: 2004.–22 б.
19. Шодиев Т.Ш.,Ходиев Б.Ю.и др. Эконометрика. учеб. пособие. – Т.: “Шарқ” . 1999 -240 с
20. Xatamov O., Toshaliyeva S. Surxondaryo viloyati kichik tadbirkorlik salohiyati natijaviyigini ijtimoiy-iqtisodiy baholash usullari va mezonlari //Iqtisodiyot va ta'lim. – 2021. – №. 4. – В. 215-224. <https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/159>
21. Toshaliyeva, S. Hududiy kichik tadbirkorlik faoliyatining rivojlanish istiqbollarini prognozlash // Iqtisodiyot va ta'lim. – 2022. – №. 3 (23). – В. 220-227.https://doi.org/10.55439/ECED/vol23_iss3/a33<https://cedr.tsue.uz/index.php/journal/article/view/530>
22. Toshaliyeva S.T. Economic and statistical analysis of the development of small business potential in Surkhandarya region //Ekonomika i predprinimatelstvo. – 2021. – №. 4. – S. 778-782.
23. Toshaliyeva S.T. The concept of «business potential»: essence, economic significance //Theoretical & Applied Science. – 2020. – №. 3. – P. 39-42.
24. Toshalieva S.T. Kichik tadbirkorlik ishlab chiqarish hajmini baholashda dinamik ekonometrik modellardan foydalanish // “Raqamli iqtisodiyotni rivojlantirishning statistik tahlilini takomillashtirishning nazariy va uslubiy jihatlari” Xalqaro ilmiy-amaliy anjuman materiallari to’plami (2022 yil 27 may). -2022. – В. 307-311. https://instat.uz/2022/kon_%2027.06.2022.pdf.



Ingliz tili muharriri: Feruz Hakimov

Musahhih: Xondamir Ismoilov

Sahifalovchi va dizayner: Iskandar Islomov

2023. № 8

© Materiallar ko'chirib bosilganda "Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali manba sifatida ko'rsatilishi shart. Jurnalda bosilgan material va reklamalardagi dalillarning aniqligiga mualliflar ma'sul. Tahririyat fikri har vaqt ham mualliflar fikriga mos kelavermasligi mumkin. Tahririyatga yuborilgan materiallar qaytarilmaydi.

Mazkur jurnalda maqolalar chop etish uchun quyidagi havolalarga maqola, reklama, hikoya va boshqa ijodiy materiallar yuborishingiz mumkin.

Materiallar va reklamalar pullik asosda chop etiladi.

E-mail: sq143235@gmail.com

Bot: @iqtisodiyot_77

Тел.: 93 718 40 07

Jurnalga istalgan payt quyidagi rekvizitlar orqali obuna bo'lishingiz mumkin. Obuna bo'lgach, @iqtisodiyot_77 telegram sahifamizga to'lov haqidagi ma'lumotni skrinshot yoki foto shaklida jo'natishingizni so'raymiz. Shu asosda har oygi jurnal yangi sonini manzilingizga jo'natamiz.

"Yashil iqtisodiyot va taraqqiyot" jurnali 03.11.2022-yildan
O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Adminstratsiyasi huzuridagi
Axborot va ommaviy kommunikatsiyalar agentligi tomonidan
№566955 reestr raqami tartibi bo'yicha ro'yxatdan o'tkazilgan.
Litsenziya raqami: №046523. PNFL: 30407832680027

Manzilimiz: Toshkent shahar, Mirzo Ulug'bek tumani
Kumushkon ko'chasi 26-uy.

